

BUXORO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

*2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.


Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni


(1-dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobjiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnidagi tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlash-tirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yishva rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1-dekabr holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)




Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-noyabr oylarida)



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(yanvar-noyabr oylarida, birlikda)




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar


(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

6


Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyl soni
o'tgan yilning shu davriga nisbatan **37,5** foizga oshdi



■ Kichik tadbirdorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar




■ Dehqonchilik,
chovachilik, ovchilik va bu
sohalarda xizmat ko'rsatish
■ O'rmon xo'jaligi
■ Baliq xo'jaligi




Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

7



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, sanoat korxonalarini va tashkilotlari soni 4 306tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 121,0 % ga oshdi.


Jami sanoat korxonalarini va tashkilotlari ko'payishining asosiy omili – (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 121,4 % ga (jami sanoatdagi ulushi 95,0 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 106,4 % ga (jami sanoatdagi ulushi 3,1 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 100,0 % ga (jami sanoatdagi ulushi 0,4 %) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning 143,5 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,5 %) o'sishidir.

Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **11,3** foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




11,0
foizga oshdi



Mikrofirmalar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar



13,3
foizga oshdi




Oilaviy korxonalar




18,8
foizga oshdi



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



Xususiy korxonalar



Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



**Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni**
(2020-yil 1-dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

10

- Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

632



- Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

19



- Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

12



**Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni**

(2020-yil 1-dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



374

yashash bo'yicha xizmatlar



1 868

Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar

2020-yil 1-dekabr holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni 2 242 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 123,6 % ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili – oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 127,9 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 83,3 %), yashash bo'yicha xizmatlarning – 105,9 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 16,7 %) o'sishidir.


Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



Oilaviy korxonalar soni (1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)




Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra 2 995 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 120 taga yoki 159,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2 786 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 002 taga yoki 156,1 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 1 111 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 203 taga yoki 122,3 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni


(2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni

(2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

13




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra 305 tani tashkil etib, ulardan 296 tasi yoki 97,0 %faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 25 taga yoki 108,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatimizda 33 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-noyabr oylarida, birlikda)



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni

(2020-yil 1-dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

14



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

	2016- yil	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil
Jami	81	88	143	273	296
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	0	1	6	20	25
Sanoat	61	59	80	115	124
Qurilish	2	4	7	29	29
Savdo	8	9	21	59	64
Tashish va saqlash	2	0	1	6	5
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6	6	12	20	22
Axborot va aloqa	0	1	0	1	1
Sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1	1	2	4	6
Boshqa turlar	1	7	14	19	20

**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)


15

	Jami	<i>shundan:</i>	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
Viloyat bo'yicha	296	147	149
Buxoro shahar	147	64	83
Kogon shahar	15	10	5
tumanlar:			
Olot	7	-	7
Buxoro	14	10	4
Vobkent	7	5	2
G'ijduvon	11	7	4
Kogon	25	18	7
Qorako'l	8	3	5
Qorovulbozor	9	4	5
Peshku	19	8	11
Romitan	11	4	7
Jondor	13	8	5
Shofirkon	10	6	4

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Buxoro shahrida 147 ta (umumiyligi miqdorida ulushi 49,7 %), Kogon tumani 25 ta (8,4 %), Peshku tumani 19 tani (6,4%), Kogon shahar 15 ta (5,1 %), Buxoro tumani 14 ta (4,7 %), hamda Jondor tumanlarida 13 tani (4,4 %) tashkil etadi.

**Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning
qo'shma korxona va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi**
(2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)

16



2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

17




2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Buxoro shahri (29,6%), G'ijduvon(10,8 %), Romitan (8,1%), Buxoro (7,8 %), Jondor (6,3 %), Peshku (6,1 %), Shofirkon(6,0 %), Kogon (5,5 %), Qorako'l (5,1 %), Vobkent (4,8 %), Kogon shahar (4,2%), Olot (3,3 %), Qorovulbozor (2,2 %) tumani hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni


(2020-yil yanvar-noyabr oylarida, birlikda)

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Buxoro shahri (21,0 %), G'ijduvon(10,4 %), Buxoro (9,0 %), Romitan(8,9 %), Peshku va Kogon (6,7 %), Jondor (6,6 %), Vobkent (6,4 %), Shofirkon(5,6 %), Qorako'l (5,0 %), Olot (4,3 %), Qorovulbozor (3,0 %) tumanlari va Kogon shahar (5,4 %), ulushiga tegishli.



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar kesimidagi soni (2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

18



2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Buxoro shahri (30,3 %), G'ijduvon(10,8 %), Romitan (8,6 %), Buxoro (8,1 %),Jondor (6,5 %), Peshku (5,9 %),Shofirkon(5,8 %), Kogon (5,4 %),Vobkent (4,7 %), Qorako'l (4,7 %), Kogon shahar (4,1 %),Olot (3,0 %), Qorovulbozor (2,3 %) tumani hissalariga to'g'ri keladi.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(2020-yilning yanvar-noyabr oylarida, birlikda)



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborotma'lumotnoma tusidagi, vaqtiga vaqt bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestriga mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdano'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsnинг (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qо'yilgan.

Buxoro viloyati
Statistik registrlarni yuritish bo'limi
Tel.: (65)223-83-20